

## BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING TALAFFUZIDA FONETIKANI O'RNI

*Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on  
tumani 18-sonli o'rta ta'lif mabitining Boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
Daniyarova Zulkumor Ishbayevna*

**Annotatsiya:** Maqolada Boshlang'ich ta'lifda so'zlarni talafuz qilishda ona tili fanidagi fonetikani o'rni haqida fiktlar bayon etilgan bo'lib, tovushlar jarangli va jarangsiz to'vushlarni ma'nosi yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Fonetika, grafika, talaffuz, jarayon, tovush.

Maktab dasturiga muvofiq, boshlang'ich sinf o'quvchilari fonetik-grafik ko'nikmalar tizimini hosil qiladilar: tovushlar va harflar, unli va undosh tovushlar, jufti bor jarangli va jarangsiz undoshlar, jufti yo'q jarangli va jufti yo'q jarangsiz undoshlar; so'zni bo'g'lnarga bo'lish, urg'uli bo'g'inni ajratish ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Bolalar maktabga kelgunga qadar ham nutqning tovush qurilishini amaliy o'zlashtiradilar, ammo ular maxsus o'qigunlariga qadar so'zni bo'g'lnarga bo'lishni, so'zdagi tovushlarni izchil talaffuz qilishni bilmaydilar. 1-sinf o'quvchilarida so'zni to'g'ri talaffuz qilish, bo'g'lnarga bo'lish, undagi har bir tovushni tartibi bilan aniq aytish ko'nikmasini shakllantirish ustida maqsadga muvofiq ishslash, o'z navbatida, analiz, sintez, taqqoslash, guruhash kabi aqliy mashqlarni bilib olishga, shuningdek, tovushlarning tabiatini, so'z tarkibida bir-biriga ta'siri kabi ayrim elementar bilimlarni o'zlashtirishga imkon beradi.

I sinfda fonetika va grafikani o'rganishga katta o'rin beriladi, chunki o'quvchilar o'qish va yozish jarayonini shu sinfda egallaydilar. Bu bilimlar keyingi sinflarda mustahkamlanadi, takomillashtiriladi.

**1. Tovushlar va harflar, unli va undosh tovushlarning xususiyatlari bilan tanishtirish.** Tovush murakkab tushuncha bo'lgani uchun boshlang'ich sinflarda

unga ta’rif berilmaydi. Shunga qaramay, bolalarda tovush haqida to‘g‘ri ilmiy tasavvur amaliy mashqlar yordamida hosil qilinadi. Bunda yetakchi usul so‘zdagi tovushlarniig talaffuzi hamda so‘zning leksik ma’nosи so‘zdagi tovushlarning tarkibiga bog‘liqligi ustida kuzatish hisoblanadi. Masalan, *aka, uka, opa, ona, ota, kul, gul, qora, qara* kabi bir unli yoki bir undosh bilan farqlanadigan so‘zlar har xil lug‘aviy ma’noni ifodalaydi. So‘zning tovush tarkibi ustida ishlash savod o‘rgatish davridanoq boshlanadi. Bolalar bu davrda talaffuz qilingan yoki eshitilgan so‘z tovushlardan tuzilishini bilib oladilar. Ular so‘zni tovush tomonidan tahlil qilishga o‘rganadilar, ya’ni so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘ladilar, so‘zdagi tovushlarni tartibi bilan aytadilar. Bunda tovush tomonidan tahlilni harf tomonidan tahlil bilan aralashtirmaslikka alohida ahamiyat beriladi. So‘zning tovush tarkibini to‘g‘ri tasavvur etish undagi harflarni tushirib qoldirmay yoki o‘rnini almashtirmay yozish malakasini shakllantirish uchun ham, so‘zni to‘g‘ri talaffuz qilish uchun ham katta ahamiyatga ega. Shuning uchun savod o‘rgatishdan so‘ng ham so‘zni tovush tomonidan tahlil qilish mashqlari yordamida so‘zdagi tovushlar tarkibini aniqlash ko‘nikmasini takomillashtirish ustida ishlab borish zarur. Ma’lumki, nutq tovushlari ikki katta guruhga bo‘linadi: *unli tovushlar va undosh tovushlar*. Buni o‘quvchilarga tushuntirishda ularning quyidagi belgilari hisobga olinadi:

- 1) talaffuz qilinish usuli (unli tovush talaffuz qilinganda havo oqimi og‘iz bo‘shlig‘idan erkin ravishda o‘tadi, undosh tovush talaffuz qilinganda, havo og‘iz bo‘shlig‘ida to‘siqqa uchraydi);
- 2) ovoz va shovqinning ishtiroki (unli tovushlar faqat ovozdan iborat, undosh tovushlar talaffuz qilinganda shovqin eshitiladi, ba’zan shovqin va qisman ovoz eshitiladi);
- 3) bo‘g‘in hosil qilish xususiyati (unli tovushlar bo‘g‘in hosil qiladi, undosh tovushlar bo‘g‘in hosil qilmaydi).

O‘quvchilar bu belgilarni yodlab olishlariga yo‘l qo‘ymaslik, aksincha, 1sinf danoq bolalarda tovushni talaffuz qilganda, ovoz yoki shovqin eshitilganda nutq a’zolarining vaziyatini kuzatish ko‘nikmasini o‘stirib borish lozim. Bunday

kuzatishlar IV sinfda davom ettiriladi va umumlashtiriladi. Tovushlarni o‘zlashtirishga bunday yondashish, unli va undosh tovushlarni puxta o‘zlashtirishga imkon berishi bilan birga, o‘quvchilarining aqliy qobiliyatini o‘stirish vazifasini ham bajaradi; xususan, bolalar kuzatilgan hodisaning bir necha belgilarini taqqoslashga, umumlashtirishga o‘rganadilar. O‘zbek tili yozuvi tovush yozuvi hisoblanadi, chunki tovush yozuvda harflar bilan ifodalanadi. 1-sinf o‘quvchilari quyidagilarni bilib olishlari lozim:

- a) tovushni talaffuz qilamiz va eshitamiz;
- b) harfni ko‘ramiz, o‘qiyamiz va yozamiz;
- v) harf - tovushning yozuvda ifodalanadigan belgisi.

O‘quvchilar ko‘pincha tovush bilan harfni aralashtirib, xatoga yul qo‘yadilar. Ularda grafik malakani shakllantirish uchun quyidagilarni o‘rgatish zarur:

- 1) bir undosh harf yozuvda ikki undosh tovushni ifodalashi mumkin (masalan, *maktab* so‘zidagi *b* harfi *p* tovushini, *maktabim* so‘zidagi *b* harfi *b* tovushini ifodalaydi);
- 2) *jo ja, jippi* so‘zlaridagi *j* tovushi (jarangli, portlovchi) ham, *jurnal, vijdon* so‘zlaridagi *j* tovushi (jarangli, sirg‘aluvchi) ham bitta *j* harfi bilan ifodalanadi;
- 3) *tong, keng* so‘zlaridagi uchinchi jarangli undosh tovush (*ng*) ikki harf birikmasi (*ng*) bilan ifodalanadi;
- 4) sh, ch harf birikmalari ham bir tovushni ifodalaydi (shamol, choy).

### **Jarangli va jarangsiz undosh tovushlar, ularning yozuvda ifodalanishi**

O‘quvchilarga jarangli va jarangsiz undosh undoshlar ham tovushlar talaffuzini kuzatishga asoslanib tanishtiriladi. Bunda jufti bor jarangli va jarangsiz undoshlar ajratiladi. Kuzatishda o‘quvchilar faol qatnashishi va ularga jufti bor jarangli undosh bilan jarangsiz undoshlarni ajratish qanchalik muhim ekanini yaqqol ko‘rsatish uchun faqat bitta undosh tovush bilan farqlanadigan *baqir - paqir, gul - kul, dil - til, zina - sina, joy - choy* kabi so‘zlardagi tovushlarni taqqoslash maqsadga muvofiq. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilar diqqatini *b-p, v-f, g-k, d-t, z-s, j-ch* tovushlari biri jarangli, ikkinchisi jarangsiz undoshdan iborat tovush juftlarini hosil qilishiga

qaratadi, ularning talaffuzidagi farqni amaliy tushuntiradi (jarangli undosh tovushlarda shovqin va qisman ovoz qatnashadi, jarangsiz undoshlarda esa faqat shovqin eshitiladi).

Xattaxtaga quyidagicha yozib qo‘yiladi:

Jufti bor jarangli undoshlar: *b, v, g, d, z, j, g'* Jufti bor jarangsiz undoshlar: *p, f, k, t, s, ch, sh, x.*

Jufti yo‘q jarangli va jufti yo‘q jarangsiz undoshlar bilan ham o‘quvchilar har xil fonetik sharoitda tovushlarni talaffuz qilishni kuzatish jarayonida tanishtiriladi. Buning uchun o‘quvchilar so‘z oxirida yoki unli tovushdan oldin kelgan *ko‘l, bilim, otam, olmos; quyon, bino; shifoner, fabrika; tong, singil; qo‘y, kiyik* kabi so‘zlardagi jarangli undoshning talaffuzini taqqoslaydilar va *l, m, n, r, ng, y* jarangli undosh tovushlar talaffuz qilinganda, ovoz va shovqin eshitilishini, ya’ni jarangli undosh tovush ekanini, bularning jarangsiz jufti yo‘qligini (jufti yo‘q jarangli undosh tovush ekanini) bilib oladilar. Xuddi shunga o‘xhash usulda o‘quvchilar *q, h* undoshlari talaffuz qilinganda, faqat shovqin eshitilishini, jarangsiz undosh tovush ekanini, jarangli jufti yo‘qligini (jufti yo‘q jarangsiz undosh tovush ekanini) bilib oladilar.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘. Ernazarov. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. Pedagogika kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. Toshkent: 2013.
2. M. Xalilov. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. Ma’ruzalar matni. Qo‘qon: 2009.
3. N. Jo‘rayeva. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasining dolzarb masalalari. Ilmiy maqola. ARES ilmiy jurnali. Volume 2. Issue 9. 2021.